



NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAVOIY VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI (2022/2023- o'quv yili boshiga)





## Navoiy viloyatida o'rta maxsus professional ta'lif tizimi

Professional ta'lif tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lif bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'lifning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lif tizimi hamda tabaqlashtirilgan ta'lif dasturlari joriy etiladigan ta'lif muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

*Ma'lumot uchun:* Milliy ta'lif tizimlarining tuzilishi va ta'lif dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lif tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat – Ta'lifning xalqaro standart tasniflagichidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab, YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lif statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lif tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqtiga vaqtiga bilan yangilanib turiladi.





## Navoiy viloyatida o'rta maxsus, professional ta'lifi tizimi

**O'rta maxsus ta'lif akademik litseylarda** to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lif asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lif oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lif olishini ta'minlaydi.

### Professional ta'lif



**Boshlang'ich professional ta'lif kasb-hunar maktablarida** IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lif shakli bo'yicha umumta'lif fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

**O'rta professional ta'lif kollejlarda** davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lif shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lif hamda boshlang'ich professional ta'lif negizida amalga oshiriladi.

**O'rta maxsus professional ta'lif texnikumlarda** umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lif negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lif shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.




# NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



## Akademik litseylar soni (o'quv yili boshiga, birlik)

**Ma'lumot uchun:** O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jalal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqaqlashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.




### Akademik litseylar soni

Navoiy shahar - 3 ta

2022/2023- o'quv yilida akademik litseylar soni 3 tani tashkil etdi.

## Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarining soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)




Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarining soni 2018/2019- o'quv yili boshiga nisbatan 1,2 ming kishiga, ya'ni 50,0 % ga kamaygan.






**Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti**  
(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)




2022/2023- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiyligi sonida o'g'il bolalar ulushi 59,0 % ni (0,7 ming kishi), qizlar ulushi 41,0 % ni (0,5 ming kishi) tashkil etdi.






## Akademik litseylarning o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)



2018-2022- yillarda akademik litseylarning o'qituvchilari soni yildan yilga kamayib kelgan. O'z o'rniда, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan 64 kishiga, ya'ni 34,8 % ga kamaygan.

## Akademik litseylarning bitiruvchilari (o'quv yili boshiga, kishi)



2022- yilda akademik litsey bitiruvchilari soni 2018- yilga nisbatan 150 kishiga, ya'ni 16,3 % ga kamaygan.



# NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




## Professional ta'lism

Professional ta'lism egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lism, o'rta professional ta'lism, o'rta maxsus professional ta'lism darajalarini o'z ichiga oladi.



## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, birlik)



2022/2023- o'quv yili boshida 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablari soni o'zgarmaganligini, kollejlar soni 1 taga kamayganligini, texnikumlar soni esa 2 taga ko'payganligini kuzatish mumkin.



# NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lismuassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)



2020/2021-o'quv yilidan 2022/2023-o'quv yilingacha bo'lgan davrni tahlili kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu davrda ularning soni kasb-hunar maktablarida 2,5 barobarga, texnikumlarda 2,5 barobarga, kollejlarda esa 1,7 barobarga oshgan.

## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lismuassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining gender taqsimoti (2022/2023-o'quv yili boshiga, ming kishi)



2022/2023-o'quv yili boshida boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lismuassasalarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilar sonidan o'g'il bolalarning ulushi (52,7 %), qiz bolalarning ulushiga (47,3 %) nisbatan ko'p bo'lgan.

Agarda professional ta'limga har bir darajasi alohida kuzatilsa, kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'g'il bolalar (77,3 %) ulushi qizlar (22,7 %) ulushiga nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin. Kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qizlar o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq. Shunday qilib, kollejlarda qizlar ulushi 88,2 % ni, o'g'il bolalar ulushi 11,8 % ni, texnikumlarda esa qizlar 60,0 % ni, o'g'il bolalar 40,0 % ni tashkil qilgan.



# NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lif muassasalarining o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lif muassasalarida so'nggi uch yil davomida o'qituvchilar soni ko'payganini qayd etish mumkin. Shunday qilib, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 30,2 % ga oshgan.

## Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lif muassasalarining bitiruvchilari (2022-yil uchun, ming kishi)



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lif muassasalarida jami bitiruvchilar soni 5,3 ming nafarni tashkil etgan b'olib, shundan kasb-hunar maktablarini 2,6 ming nafar, kollejlarlarni 0,7 ming nafar va texnikumlarni 2,0 ming nafar o'quvchilar bitirdi.



# NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Ma'lumot uchun: *Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda, 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.*

## Kasb-hunar maktablari soni (o'quv yili boshiga, birlikda)

11

11

2021- yil → 2022- yil

## Kasb-hunar maktablari shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (2022/2023- o'quv yili boshiga, birlikda)

Qiziltepa t.	2
Nurota t.	2
Navoiy sh.	1
Zarafshon sh.	1
Karmana t.	1
Konimex t.	1
Navbahor t.	1
Uchquduq t.	1
Xatirchi t.	1




2022/2023- o'quv yili boshida Navoiy viloyatida kasb-hunar maktablari soni 11 tani tashkil etdi.






## Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi

**Shahar va tumanlar bo'yicha**  
(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)



**Navoiy viloyati**  
(o'quv yili boshiga, ming kishi)




2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablarida 6,6 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida – 1,7 ming nafar, eng kam Navbahor va Konimex tumanlarida – 0,4 ming nafarni tashkil etgan.





**Kasb-hunar muktablarida faoliyat yuritayotgan  
o'qituvchilarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, kishi  
(o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)**




# NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI





## Kollejlar soni

### Shahar va tumanlar bo'yicha (2022/2023- o'quv yili boshiga, birlikda)



### Navoiy viloyati (o'quv yili boshiga, birlikda)




2022/2023- o'quv yili boshida Navoiy viloyatida kollejlar soni 4 tani tashkil etdi.







## Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi

### Shahar va tumanlar bo'yicha (2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)



### Navoiy viloyati (o'quv yili boshiga, kishi)




2022/2023- o'quv yili boshida Navoiy viloyatidagi 4 ta kollejda 1742 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.





**Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi, kishi  
(o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)**

**Shahar va tumanlar bo'yicha**



**Navoiy viloyati**



■ 2021/2022 ■ 2022/2023




2022/2023- o'quv yili boshida kollejlarda  
71 nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat  
ko'rsatmoqda.






## Texnikumlar soni

### Shahar va tumanlar bo'yicha (2022/2023- o'quv yili boshiga, birlikda)



### Navoiy viloyati (o'quv yili boshiga, birlikda)



Navoiy viloyatida 2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlar soni 11 tani tashkil etdi.






**Texnikum talabalarining taqsimlanishi**  
(o'quv yili boshiga, ming kishi)

**Shahar va tumanlar bo'yicha**



**Navoiy viloyati**



■ 2021/2022 ■ 2022/2023



2022/2023- o'quv yili boshida Navoiy viloyatidagi texnikumlarda 7,5 ming talaba tahsil olmoqda.


■ 2021/2022 ■ 2022/2023






**Texnikum o'qituvchilari taqsimlanishi, kishi**  
(o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)

**Shahar va tumanlar bo'yicha**



**Navoiy viloyati**



2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlarda 243 nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan.





## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi** – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlardan iborat bo'ladi.

**Akademik litsey** – uzlusiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiyligini olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

**Professional ta'lismi** – ta'lismi oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzlusiz ta'lim tizimi.

**Kasb-hunar maktabi** – Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

**Kollejlar** – Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

**Texnikumlar** – Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim tashkilotlari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.





**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:**

**Ijtimoiy soha  
statistikasi bo'limi**



**Navoiy viloyati  
statistika boshqarmasi**



**Manzil: Navoiy sh.,  
Amir Temur ko'chasi, 4-uy**



**Tel.: +99879 223-54-98**



**e-mail: nv@navstat.uz**



**www.navstat.uz**



**facebook.com/navstatistika**

